




“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning Gender masalalari bo‘yicha 2025 yil uchun

HARAKATLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
Yoqilg‘i-energetika sohasida ayollar malakasini oshirish, ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash va rivojlantirish ishlari bo‘yicha				
1.	Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mavqeini mustahkamlash va energetika sohasida gender tengligini oshirish maqsadida Gender strategiyasini ishlab chiqish.	1. “Elektr tarmoqlarini raqamlashtirish hamda barqarorligini oshirish” loyihasi doirasida Osiyo taraqqiyot banki konsultantlari hamda boshqa mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ gender tengligi masalalarini rivojlantirishga qaratilgan Gender strategiyasini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan strategiyani ijroga qaratish.	2025 yil may	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; R. Abdullayev.
2.	Yoqilg‘i-energetika sohasida faoliyat yuritayotgan ayol xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida ochilgan “Rahbar ayollar” xalqaro ta’lim markazida o‘qitish choralari ko‘rish.	1. Davlat boshqaruvi akademiyasining so‘roviga ko‘ra o‘qishga yuboriladigan ayol xodimlar ro‘yxatini shakllantirish va Davlat boshqaruvi akademiyasiga taqdim etish; 2. “Rahbar ayollar” markazi bitiruvchilarining zaxirasini shakllantirish.	2025 yil avgust 2025 yil dekabr	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; barcha hududiy filiallar hamda “Buxoro HETK” AJ, “Farg‘ona HETK” AJ, “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MCHJ mas’ullari.

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, lider ayollarni shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy hamkorlar bilan tajriba almashish.	1. Yoqilg'i-energetika sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlarni xorijiy hamkorlar tomonidan tashkil etiladigan malaka oshirish, seminar va konferensiyalarga tajriba almashish uchun yuborish. 2. Malaka oshirish, seminar va konferensiyalar yakuni bo'yicha olingan bilimlarni barcha hududiy tashkilotlardagi ayol xodimlarga yetkazish maqsadida taqdimotlar o'tkazib borish.	2025 yil davomida	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari.
Ta'lim va xabardorlik bo'yicha				
4.	Yoqilg'i-energetika sohasida gender tengligi mavzusida seminar-treninglar va ma'ruzalar o'tkazish hamda gender tengligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish.	1. Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar va erkaklar ishtirokida "Ayollarning energetika sohasidagi o'rni: zamonaviy tendensiyalar" mavzusida an'anaviy forumni tashkillashtirish. 2. Gender tengligini ta'minlash, ayollar faolligini oshirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan ishlarni "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritib borish.	2025 yil davomida doimiy	O. Alimardonov S. Ibragimova K. Xusanova F. Nuraliyev
5.	Yosh qizlarni elektr energetika sohasiga yo'naltirish va qiziqtirish.	1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bitiruvchi qizlar bilan davra suhbatini o'tkazish. 2. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga soha mutahassislari ishtirokida elektr energetikasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar, elektr tarmoqlarini raqamlashtirish hamda barqarorligini oshirish bo'yicha davra suhbatini tashkil etish, shuningdek, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari bilan tanishtirish va ularning sohaga qiziqishini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish.	2025 yil mart-oktabr	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; F. Nuraliyev; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari.

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
Madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha				
6.	Yurtimizda mahalliy turizmni rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish hamda xotin-qizlar va erkaklar tomonidan yurtimiz tarixini keng o'rganish maqsadida tarixiy shaharlar va maskanlar bo'ylab sayohatlarni tashkil etish.	1. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar va erkaklar uchun mamlakatimizdagi madaniy-tarixiy obidalarga sayohatlar tashkil qilish; 2. Xotin-qizlar va erkaklarga tariximiz va madaniyatimizni targ'ib qilish bo'yicha korxonalarda tashviqot ishlarini olib borish va turli chorlovlar tashkil qilish.	2025 yil davomida	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; F. Nuraliyev; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari.
7.	Xodimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning ishdan tashqari vaqtlarini mazmunli o'tkazish.	Ayol xodimlarning ishdan tashqari vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun teatr, kino, konsert va muzeylarga tashriflar tashkillashtirish.	doimiy	D. Xabibova; S. Ibragimova; K. Xusanova; F. Nuraliyev; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari
Jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish ishlari bo'yicha				
8.	Mehnat qilayotgan xodimlar va ularning oila a'zolarini dam oldirish va sog'lomlashtirish sifatini oshirish borasidagi ishlarni tizimli ravishda davom ettirish.	1. Xodimlarning doimiy sport bilan shug'ullanishlarini tashkil etish maqsadida ularni tashkilotlar orasida o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlari (yugurish, futbol, voleybol, shaxmat, shashka, tennis va h.k.)ga jalb qilish choralari ko'rish; 2. Xodimlarni doimiy ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun ularni turli sport to'garaklariga jalb qilish.	2025 yil davomida	D. Xabibova; S. Ibragimova; K. Xusanova; F. Nuraliyev; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
9.	Xotin-qizlar va erkaklar salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlarga xos bo'lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish bo'yicha choralar ko'rish.	Ayol xodimlarning sog'ligini doimiy nazorat qilib turish maqsadida ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish choralari ko'rish.	2025 yil davomida	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; F. Nuraliyev; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari
10.	Xotin-qizlar orasida ommaviy sport turlarini rivojlantirish, ularni ushbu tadbirlarga faol jalb qilish maqsadida voleybol, stol tennisi, badminton, yugurish, shaxmat va shashka sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish.	1. Sport vazirligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan sport musobaqalari nizomini ishlab chiqish; 2. Musobaqalarni "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va uning tarkibiy korxonalarini ishtirokida ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilishini ta'minlash.	2025 yil davomida	O. Alimardonov; S. Ibragimova; K. Xusanova; F. Nuraliyev; barcha hududiy filiallar hamda "Buxoro HETK" AJ, "Farg'ona HETK" AJ, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MCHJ mas'ullari